



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIMDA O'RTA BO'G'IN MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH TAJRIBA-SINOV ISHLARI METODIKASI

Yusupov Nodir Baxriddinovich

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruvi hamda
pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish
instituti mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'ZBEKISTON

E-mail: javohiryusupov@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8260281>

ARTICLE INFO

Received: 09th August 2023

Accepted: 16th August 2023

Online: 17th August 2023

KEY WORDS

Professional, Veterinariya,
ta'lim, standart, o'quvchi,
biologiya, Virtual, pedagogik,
tadqiqotchi.

ABSTRACT

Tajriba-sinov ishlarini tashkil yetishda ushbu metod yordamida Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quvchilarining kasbiy faoliyatini mohiyatini qay darajada anglashlari, bo'lajak mutaxassis va fuqaro sifatida kasbiy faoliyatlarini rivojlanganligi, umuman olganda, ularning kasbiy tayyorliklari darajasini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot davrida pedagogik kuzatish natijalarining ob'ektivligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar tomonidan mutaxassislik fanlari (veterinariya mikrobiologiyasi) va kasbiy fanlarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlar darajasini ham o'rganildi.

Professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi metod va vositalardan foydalanildi:

1. Pedagogik kuzatuv – pedagogik “hodisa va jarayonlar bilan faol tanishuvni amalga oshiruvchi” metod. Metodning afzalligi shu bilan belgilanadiki, u kuzatish rejalashtirilgan sharoitlarda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan hodisa va jarayonning mavjud holati (xulq-atvori)ni o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta shaxs ustida ham va bir guruh shaxslar ustida ham olib borish mumkin. Bu metoddan bolalar bog'chasi guruhlaridan tortib, oliy ta'limdan keyingi ijtimoiy guruhlargacha bo'lgan jarayonlarda foydalanish qulay. Odatda, pedagogik kuzatish metodi muayyan texnologik elementlar yordamida tashkil etiladi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1) muayyan hodisa, ijtimoiy borliq hamda shaxs xatti-harakatlarini kuzatish ma'lum qismlar va yo'nalishlarga ajratiladi;

2) kuzatilayotgan pedagogik jarayonning ko'lami, o'ziga xos xususiyatlari, belgilari va elementlari belgilab olinadi;

3) kuzatish jarayonida kuzatilayotgan pedagogik hodisa, holat, belgi va ko'rinishlarning o'ziga xos jihatlari qayd etib boriladi;

4) kuzatish chog'ida aniqlangan omillar, olingan ma'lumotlar matematik formulalar yordamida tahlil, qayta tahlil yoki statistik tahlil qilinadi.



Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ushbu metod yordamida Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quvchilarining kasbiy faoliyatini mohiyatini qay darajada anglashlari, bo'lajak mutaxassis va fuqaro sifatida kasbiy faoliyatlarini rivojlanganligi, umuman olganda, ularning kasbiy tayyorliklari darajasini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot davrida pedagogik kuzatish natijalarining ob'ektivligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar tomonidan mutaxassislik fanlari (veterinariya mikrobiologiyasi) va kasbiy fanlarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlar darajasini ham o'rganildi. Zero, ana shu kabi fanlar doirasida o'quvchilarda kasbiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

2. Anketa (fransuzcha "tekshirish") "o'quvchilarda so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqish ko'zda tutiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalarni ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savolar shakliga" bog'liq. Tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish jarayonida mazkur metoddan samarali foydalanish Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quvchilarining kasbiy faoliyati mohiyatini qayd darajada ang'ay olishlari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, roli, ahamiyatini tushunishlariga egaliklarini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Mazkur metod, shuningdek, tashxis xususiyatiga ham ega bo'lib, uning yordamida respondent-o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini namoyon bo'lishining tajriba avvali hamda yakunidagi holati xususida tasavvurga ega bo'lish, ular o'rtasidagi farqni tahlil qilish imkoniyatini yaratishi uchun ham xizmat qildi. Umuman olganda, "o'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzda javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar)".

Sinov ishlarini olib borish chog'ida respondent-o'quvchilarning Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) talim yo'nalishi bo'yicha qarashlari, tasavvurlari darajasini to'g'ri baholash maqsadida ochiq turdagi anketalardan foydalanildi. Bunga ko'ra o'quvchilar berilgan savollarga batafsil javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tajriba-sinov ishlariga ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar jalb etilganliklari sababli ikki turdagi anketa savollari ishlab chiqildi.

3. Suhbat metodi – bu o'rganilayotgan pedagogik jarayon, hodisalarning muhim jihatlarini, o'ziga xosliklarini aniqlash maqsadida respondentlar ishtirokida tashkil etiladigan dialogik xarakterdagi savol-javob. Mazkur metod "tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi". Pedagogik sinov ishlarining mohiyatiga ko'ra suhbatlar asoslovchi, shakllantiruvchi va yakuniy tajribalarning muhim tarkibiy qismi bo'la oladi. Metoddan samarali foydalanish ijobiy pedagogik natijalarga erishishni kafolatlaydi.



Ilmiy izlanishni tashkil etishda suhbat metodi bir qator afzalliklarni o'zida namoyon etish bilan birga, muayyan cheklavlarga ham ega bo'lgan anketa so'rovlari chog'ida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni boyitish, dalillarni qat'iylashtirish imkonini beradi.

Bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda suhbat metodlaridan foydalanish ularning virtual ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim berish bo'yicha bilim va ko'nikmalari borasidagi qarashlari bilan tanishish, uni ta'minlovchi omillar, shart-sharoitlar haqida ma'lumotlarga egaliklarini aniqlash, shuningdek, Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Suhbat jarayonida respondent o'quvchilar tomonidan kasbiy faoliyatini rivojlantirishda erishilgan muvaffaqiyatlarining asoslari hamda duch kelinayotgan qiyinchiliklarining sabablarini tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi.

Sinov ishlariga jalb etilgan o'qituvchilar ishtiroklarida ham suhbatlar tashkil etilib, ularning o'quvchilarning kasbiy faoliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan munosabatlari to'g'risidagi fikrlari ham o'rganildi. Chunki, o'qituvchilar o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'ladilar, ularning xulq-atvori va xatti-harakatlarining izchil kuzatib boradilar. Shu sababli o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorliklarivirtual ta'lim texnologiyalari yordamida o'z kasbiy faoliyatini olib borayotgan harakatlari yuzasidan hech kim ularga ta'lim berayotgan o'qituvchilardan ko'proq ma'lumotlar bera olmaydi.

4. Intervyu – bu savol-javob yordamida sinov ishlari respondentlari, muayyan tadbir ishtirokchilari yoki jarayon qatnashchilarining sodir bo'lgan voqea, hodisa hamda mavjud ob'ektga bo'lgan munosabatlarini aniqlash maqsadida tashkil etiladigan metod sanaladi. Odatda, intervyu yordamida puxta o'ylangan savollar orqali ishtirokchining voqelikka munosabti o'rganiladi. Intervyu uchun tuzilgan savollar anketalarning savollari kabi tadqiqot mohiyatini yorituvchi keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi hamda javoblarning ham ko'p ma'noli bo'lishini ta'minlaydi. "Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, ya'ni muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga to'g'ri keladi". Biroq, respondentlarning "bilimlarini hisobga olib tuzilgan savollar o'rganilayotgan holatlar tuzilishi hamda darajalarini" keyingi bosqichlarda ham "aniqlash uchun qimmatli natijalar" ning qo'lga kiritilishini ta'minlaydi.

Bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda intervyu metodidan foydalanishda ko'ngildan suhbatlashish imkoniyati mavjudligi kabi bir qator afzalliklarga egaligi inobatga olindi. Ushbu metoddan, asosan, biologiya ta'limiga oid nazariy bilimlar singdirilgan o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda, yanada aniqrog'i, ularning yakunida tashkil etilib, olgan taassurotlari to'g'risida o'zaro fikr almashildi.

Intervyu jarayonida respondentlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar navbatdagi o'quv mashg'ulotlari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan holatlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keldi. Bu esa o'z-o'zidan ular samaradorligini yanada oshirilishini ta'minladi.

5. "Trening (inglizchadan trein – "mashq qilish", "mashqlantirish") shaxsda bilim, muloqot hamda ko'nikma, malakalarini shakllantirishga, muayyan ijtimoiy jamoadagi kishilarning o'zaro harakatlarini tashkil etishga xizmat qiladigan guruhli metodlar. Treninglar jarayonida ijtimoiy-guruhli bahs-munozaralar va rolli o'yinlardan keng foydalaniladi.



Treninglarning assosiy maqsadi: 1) shaxsning umumiy muloqot, o'zaro aloqani tashkil etish qobiliyatlarini tahlil qilish; 2) turli ijtimoiy guruhlariga mansub shaxslarda maxsus muloqot, o'zaro ijtimoiy aloqalarni tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirish".

Tadqiqot jarayonida treningdan respondent-o'quvchilar tomonidan kasbiy kompetensiyalarini virtual ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishga oid mulohazalarini tarkib toptirish maqsadida foydalanildi. Treningning afzalligi shundaki, u yordamida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bir necha shaxsdan tarkib topgan guruh fikri bilan tanishish, bu asosida shaxsiy qarashlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tahlil qilish, o'z fikrini erkin bayon etish va uni dalillar bilan mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Tajriba-sinov ishlari chog'ida uyushtirilgan treninglarda turkum amaliy mashqlar qo'llanildi. Ushbu amaliy mashqlar vositasida respondent-o'quvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan sifatlar tarbiyalandi.

6. Pedagogik tajriba ("eksperiment" lotincha – "tajriba qilib ko'rish") metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Tadqiqotni olib borishda pedagogik tajribani tashkil etish orqali bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid maxsus kurs dasturi va metodika amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Maxsus kurs dasturi va metodikaning tarkibiy tuzilmasidan respondent-o'quvchilar o'rtasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi nazariy ma'lumotlar, shuningdek, ularda biologiya ta'limiga doir bilim va dunyoqarashni o'stirishga xizmat qiladigan amaliy mashqlar o'rin oldi. Bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid maxsus kurs dasturi va metodika mazmun-mohiyati, ularni professional ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish xususida ishning ikkinchi bobida batafsil so'z yuritilgan.

7. Matematik-statistik metod "tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Kivirlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin" hamda Styudent-Fisher metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Bo'lajak veterinarlarni virtual ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'lida amalga oshirilgan tajriba ishlarida matematik-statistik metod sinov uchun tavsiya etilgan dastur va metodikaning samaradorligini baholashga xizmat qildi. Uning yordamida tajribadan avval va keyin respondent-o'quvchilar tomonidan kasbiy kompetensiya va veterinariya ta'limi mohiyatiga oid nazariy bilimlarning o'zlashtirilish darajasi, holati



baholandi. Matematik-statistik tahlil natijalari, shuningdek, tadqiqotning samaradorligi borasidagi xulosaning shakllanishini ham ta'minladi.

Tadqiqotni amalga oshirish dasturiga binoan o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish sifatining statistik tavsifi professional ta'lim muassasasalari 0.63.01.00 - Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fanlari (veterinariya mikrobiologiyasi fani misolida) bo'yicha biz ishlab chiqqan virtual ta'lim vositalari va metodika mazmunining samarali ekanligini baholash imkonini berdi.

Virtual ta'lim vositalari asosida mutaxassislik fanlar ("veterinariya mikrobiologiyasi fani misolida) bo'yicha mashg'ulotlarini tashkil etish o'quvchilarning kasbiy bilim darajasining sezilarli darajada oshishiga imkon yaratdi. Tajriba guruhi o'quvchilari o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 13.3 % ga yuqori bo'ldi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909 - sonli Qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3151-sonli qarori. www.lex.uz.
3. Abdukodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish naazriyasi va amaliyoti. -T.: Fan, 2009.-145 b
4. Amirov S.F., Yokubov M.S., Jabborov N.G. Elektrotexnikaning nazariy asoslari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston, 2017 y.